

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI

OLIVY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

**MIRZO ULUG'BEK NOMIDAGI
O'ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**



"KIRITDI"

Mirzo Ulug'bek nomidagi
O'zbekiston Milliy universiteti

[Signature]
5. yan 2026-yil



"TASDIQLADI"

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar
vazirligi

[Signature]
2026-yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI VA
BAHOLASH MEZONI**

**KIRISH IMTIHONLARIDA "O'ZBEK TILI VA ADABIYOTI"
FANI MAVJUD BARCHA TURDAGI YO'NALISHLAR
(KO'ZI OJIZLAR) UCHUN DASTUR
(ta'lim yo'nalishlarga mos fan bo'yicha)**

Ushbu dastur O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026-yil " _____ " _____ kuni _____ sonli buyrug'i bilan tasdiqlangan.

Tuzuvchilar:

U.K.Ametova

G.S.Keldiyorova

- O'ZMU O'zbek adabiyotshunosligi kafedrası dotsenti, f.f.f.d.

- O'ZMU O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti

Taqrizchilar:

A.A.Ubaydullayev

- O'ZMU O'zbek tilshunosligi kafedrası dotsenti

A.Ulug'ov

- Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti professori, f.f.n.

Mazkur dastur Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti O'quv-uslubiy Kengashining 2026-yil 23-apreldagi 4-sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan.

KIRISH

Mazkur dastur ko'zi o'z va ko'rish qobiliyati sust bo'lgan abituriyentlar uchun O'zbekiston Respublikasidagi ixtisoslashtirilgan maktablar o'quv dasturiga mos tarzda tuzilgan.

O'zbek tilining grammatik xususiyatlari, ifoda imkoniyatlari va o'zbek adabiyotining asosiy tamoyillari, muallif va asarlari umumiy ta'lim va o'rta maxsus kasb-hunar ta'limi darsliklarida yoritilgan.

Til va jamiyat, fonetika, orfoepiya, orfografiya, grafika, leksikologiya, morfemika, so'z yasash, morfologiya, sintaksis, punktuatsiya, stilistika kabi bo'limlar hamda adabiyot, so'z san'ati, adabiyotshunoslikning tarkibiy qismlari, xalq og'zaki ijodi, janrlari, uyg'unlashuv davri adabiyoti, yangi davr o'zbek adabiyoti, ma'rifatparvarlik adabiyoti, judio adabiyoti, sho'rolar davri adabiyoti, mustaqillik davri adabiyoti bo'yicha berilgan mavzular o'quvchi tafakkurini o'stirishda, dunyoqarashini belgilashda ahamiyatlidir.

Fanning maqsadi va vazifalari

Ushbu dastur bo'lajak mutaxassis-kadrlarning kasbiy bilim, ko'nikma va malakalarini takomillashirishga qaratilgan bo'lib, til va adabiyot turkumidagi alohida fanlarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritishni ko'zda tutadi.

Bunda abituriyentlarning kelgusi kasbiy faoliyatlari uchun puxta nazariy asos yaratish; til va adabiyot masalalarini talqin qila olish ko'nikma va malakalarini shakllantirish maqsad qilib qo'yilgan. Ushbu maqsadni amalga oshirishda o'zbek tili grammatikasi asoslarini o'zlashtirish, adabiyot fani doirasidagi mavzularni, yozuvchi hayoti va ijodiga doir ma'lumotlarni o'rganish, badiiy san'at turlarini bilish, tahlil qilish ko'nikmalariga ega bo'lish vazifalari ko'zda tutilgan.

Abituriyentning bilimiga qo'yiladigan talablar

"O'zbek tili va adabiyoti" (ko'zi o'zlar uchun) kasbiy (ijodiy) imtihon dasturiga ko'ra o'zbek tili va adabiyoti fanlarining har biriga talablar qo'yiladi:

O'zbek tili fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida abituriyent:

- adabiy tilning fonetik, leksik-semantik, grammatik me'yorlari;

- orfografiyaga, orfoepiyaning nazariy masalalari asosida og'zaki va yozma nutq ko'nikmalarini;

- lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi qoidalarini;

- tilshunoslikning har bir bo'limlari bo'yicha umumiy o'rta va o'rta maxsus ta'lim dasturlariga yaqinlashtirilgan holdagi ma'lumotlarni;

- grammatik tahlil qilish ko'nikmasini bilishi kerak.

O'zbek adabiyoti bo'yicha abituriyent:

- o'zbek adabiyotining asosiy nazariy tamoyillari;

- adabiyot tarixida sezilarli iz qoldirgan mashhur adiblar hayoti;

- milliy adabiyot tarixidan o'rta o'lgan asarlar va ularning tahlili;

- zamonaviy adabiyotga tegishli ayrim ijodkorlar faoliyatidan xabardor bo'lishlari kerak.

Fanning mazmuni

O'zbek tili

Til va jamiyat. Tilning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'ri. Tilning aloqa-munosabat vositasi sifatidagi ahamiyati. Dunyo tillari. Til oilalari.

Fonetika. Nutq tovushlari va ularning tasnifi. "Fonema", "urg'u", "bo'g'in", "takl" tushunchalari. Fonetik o'zgarishlar: tovush almashuvi, tovush tushishi, tovush ortishi.

Orfoepiya. Talaffuz me'yori. Orfoepiya me'yori asosidagi tovush o'zgarishlari; assimilyasiya, dissimilyasiya, metateza.

Orfografiya. Imlo qoidalar. Fonetik yozuv, morfologik yozuv, shakli yozuv qoidalar.

Grafika. Tovush va harf munosabati. Yozuv tarixi. Lotin yozuvi asosidagi yangi o'zbek alifbosi.

Leksikologiya. So'z va ma'no. Lug'aviy ma'no va grammatik ma'no. O'z ma'no va ko'chma ma'no. Bir ma'no (monosemantik) va ko'p ma'no (polisemantik) so'zlar. So'z va leksema. So'zning shakl va ma'no munosabatiga ko'ra turlari: shakldoshlik, ma'nodoshlik, zid ma'no, sinonimlik, paronimlik hodisalar.

Tarixiylik jihatidan o'zbek tili leksikasi. Tarixiy so'zlar, arxaismlar, neologizmlar. O'zbek tilining lug'at boyligi. Qo'llanish doirasiga ko'ra o'zbek tili leksikasi. Adabiy tilning ijtimoiy hayotdagi o'ri. Hududiy chegaralangan so'zlar: lahja, sheva tushunchalari. Ijtimoiy chegaralangan so'zlar: argo va jargonlar. Termin (atamalar). Terminologiya (atamashunoslik).

Lug'at boyligining ortib borish usullari: ichki manba va tashqi manba. Olinma so'zlar.

Barqaror birliklar: maqol-matallar, iboralar, hikmatli so'zlar (aforizmlar). Leksikografiya. Lug'at va uning turlari. Ensiklopedik lug'atlar. Filologik lug'atlar.

Morfemika. So'z tarkibi. O'zak morfema va affiks morfema. Affiks morfema (qo'shimchalar)ning vazifasiga ko'ra turlari: so'z yasovchi va shakl yasovchi (lug'aviy shakl yasovchi, sintaktik shakl yasovchi) qo'shimchalar.

Grammatika: morfologiya va sintaksis. Morfologiya - so'z turkumlari, grammatik shakl, grammatik ma'no haqidagi bo'lim sifatida.

So'z turkumlari. To'plam va tasnif. Mustaqil so'z turkumlari. Ot va uning morfologik xususiyatlari. Otlarning lug'aviy shakllari: ko'plik, kichraytirish-erkalash shakllari. Otlarning munosabat shakllari: kelishik va egalik qo'shimchalar.

Sifat. Sifat darajalari. Asliy sifat va nisbiy sifat. Tuh va yasama sifalar. Son. Miqdor son va tartib son. Hisob (o'lov) so'zlari.

Olmosh. Olmoshning ma'no turlari. Kishilik olmoshlari. Ko'rsatish olmoshlari. O'zlik olmoshi. So'roq olmoshlari. Belgilash-jamlash olmoshlari. Bo'lishsizlik olmoshlari. Gumon olmoshlari.

Ismlar. So'zlarni turkumlarga ajratish tarixi. Ot, sifat, son, olmosh, sifatlovsh, harakat nomi, taqdid so'zlarning ismlik xususiyatlari. Ismlarning munosabat shakllari.

Fe'l. Fe'llarning ma'no turlari: harakat va holat fe'llari. Tushlanish. Fe'llarda zamon, mayl, bo'lishli-bo'lishsizlik tushunchalarining ifodalanishi. O'timli va o'timsiz fe'llar. Fe'l nisbatlari. Ko'makchi fe'lli so'z qo'shilmasi (harakat tarzi shakllari).

Ravish. Ravishning ma'no turlari. Ravishlarda kelishik va egalik shakllarining yaxlitlanib qolishi.

Yordamchi so'zlar: ko'makchi, bog'lovchi, yuklama.

Undov so'zlar. Taqdid so'zlar. Modal so'zlar.

Sintaksis. So'z birliklari. So'z birliklarining bog'lanish usullari: boshqaruv, moslashuv, bitishuv. So'z birliklari turlari: o'tli birliklar va fe'lli birliklar.

Gap. Gapning ifoda maqsadiga ko'ra turlari: darak gap, so'roq gap, buyruq gap, istak gap.

Gapning his-hayajon ishtirokiga ko'ra tasnifi: his-hayajon (undov) gap va his-hayajonsiz gap.

Gapning modalikka (voqealikka munosabatiga) ko'ra tasnifi: tasdiq gap va inkor gap.

Gapning tuzilishiga ko'ra tasnifi: soddaga gap va qo'shma gap.

Soddaga gap sintaksisi. Gap bo'laklari: gapning bosh bo'laklari. Kesim: ot-kesim va fe'l-kesim. Murakkab ot-kesim. Bog'lama. Murakkab ot-kesim va ega o'rtasida tirening ishlatilishi. Ega. Ega ishtirokiga ko'ra soddaga gap tasnifi: egasi mavjud gaplar va egasi mavjud bo'lmagan gaplar. Egasi yashiringan gaplar. Egasi (shaxsi) topilmas gaplar. So'z-gap. Atov gap.

Gapning ikkinchi darajali bo'laklari: hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi.

Gapning uyushiq bo'laklari: uyushiq kesim, uyushiq ega, uyushiq hol, uyushiq to'ldiruvchi, uyushiq aniqlovchi. Uyushmagan aniqlovchi.

Gapning ajratilgan bo'laklari. Ajratilgan kesim, ega, hol, to'ldiruvchi, aniqlovchi. Gap bo'laklari bilan grammatik munosabatga kirishmaydigan bo'laklar: kiritma, kiritma gap, undalma.

Soddaga yig'iq gap. Soddaga yoyiq gap. To'liq gap va to'liqsiz gap. Gap bo'laklari tartibi. Inversiya.

Qo'shma gap sintaksisi. Qo'shma gap tarkibidagi soddaga gaplarni bog'lovchi vositalar.

Qo'shma gapning tarkibidagi soddaga gaplarni bog'lovchi vositalar xarakteriga ko'ra turlari: bog'langan qo'shma gap, ergashgan qo'shma gap, bog'lovchisiz qo'shma gap. Havola bo'lakli gap. Qo'shma gapning soddaga gap bilan ma'nodoshligi.

Uslubiyat. Nutq uslublari: so'zlashuv uslubi, rasmiy-idoraviy uslub, ilmiy uslub, ommabop uslub, badiiy uslub.

Punktuatsiya. Tinish belgilarining qo'llanishi.

O'zbek adabiyoti

Qadimgi adabiy yodgorliklar. "Avesto" adabiy manba sifatida. O'rta-asr adabiyoti. "Devonu lug'at-turk" adabiy namunalar. "Qutadg'u bilig" dostonining obrazlar tizimi. "Hibatulloh" haqqiyot asarining ma'rifiy asoslari. Xoja Ahmad Yassaviy ijodi va hikmatlari tarqatqiyoti.

Temuriylar davri adabiyoti. Temuriylar davri adabiyotining taraqqiyot omillari. Gadoiy, Atoiy, Lutfiy va Sakkakiy she'riyati.

Navoiy tarjimaiy bolining adabiy manbolari. "Xazoyinu-l-maoniyy"ning tarkibi. Navoiy ijodida lirik janrlar. "Xamsa"chilik an'analari va Navoiy "Xamsa"si.

XVI-XIX asrlar adabiyoti. Xonliklar davri adabiyotining xususiyatlari. Bobur badiiy merosi, "Boburnoma". Ilmiy merosi. Qul Ubaydij ijadi. Mashrab shariyati. "Mabdui nar" muallifligi masalasi. Huvaydo g'azallari poetikasi. Amir Umarxon adabiy muhiti ijodkorlari. Nodira ijodi. Ogahiy she'riyatining obrazlar tizimi. Muqimiy va Furqat ijodi. Avaz O'tar asarlari.

Yangi o'zbek (milliy uyg'onish) adabiyoti. Jadid tushunchasi, maqsad, vazifalari, o'rganilishi, muammolari. Milliy matbuot. Milliy teatr, badiiy adabiyot, ma'rifiy-ijtimoiy she'riyat (A. Avloniy, Hamza, So'fizoda, A. Qodiriy) va publisistika (Behbudiy, Fitrat, Munavvarqori, Hoji Muin).

Yangi o'zbek adabiyoti. Sho'ro davri adabiyotining o'ziga xos xususiyatlari. G'. G'ulom, Oybek, H. Olimjon, A. Qahhor, Zulfiya, M. Shayxzoda, Mirtemir kabi shoir va yozuvchilar shu davr adabiyotining namoyandalari sifatida.

Istiqlol davri o'zbek adabiyoti. Mustaqillik tuyg'usi o'zbek adabiyotida milliy o'zlikni anglashga tushnalik sifatida namoyon bo'lganligi. Istiqlol davri o'zbek adabiyotiga Said Ahmad, O. Yoqubov, P. Qodirov, Sh. Xolmirzayev, E. Vohidov, A. Oripov, O. Matjon, Usmon Azim, Xurshid Davron, Shavkat Rahmon, Erkin A'zam, Xurshid Do'stimurad, Nazar Eshonqul va boshqa ijodkorlar qo'shgan hissalari xususida. Ular ijodidagi o'ziga xos xususiyatlar va yetakchi tamoyillar.

IJODIY (KASBIY) IMTIHON NATIJALARINI BAHOLASH

MEZONI

Ko'zi o'jizlar uchun ijodiy imtihon 5 ballik tizimda baholanadi.

Ko'zi o'jizlar uchun kirish imtihonlari og'zaki tarzda o'tkaziladi va har bir imtihon biletiga uchadan nazariy savol kiritiladi.

Ijodiy imtihonni baholashda quyidagi mezonlardan kelib chiqiladi:

1. Abituriyentning javobi 5 ("a" lo")ga baholanishi uchun:

- mavzuning mohiyatini to'g'ri anglagan bo'lishi, ijodiy mulohazalar asosida yoritishi;
- mavzuni mustaqil fikr asosida bayon qilishi;
- fakt va misollardan o'rinli foydalanib to'g'ri xulosalar chiqara olishi;
- mavzu doirasidagi barcha masalalarni qamrab olishi;
- talab darajasidagi filologik va ijtimoiy-siyosiy bilimiga ega bo'lishi;
- natijaviy ravon bo'lib, fikrini adabiy tilda ta'sirchan ifodalay bilishi zarur.

2. Abituriyentning javobi 4 ("yaxshi")ga baholanishi uchun:

- mavzu mohiyatini atroflicha, ijodiy yondashuv asosida yoritishi;
- mustaqil fikrlashga intilishi;
- fikrlarini izchil ifodalash qobiliyatiga ega bo'lishi;
- natijaviy ravonlik, ravonlik, obrazlilik ko'zga tashlanib turishi;
- qamralardan, fakt va misollardan o'rinli foydalana olishi;
- filologik va ijtimoiy-siyosiy savodxonligi yetarli bo'lishi;
- fikrini adabiy tilda to'g'ri, maqsadga muvofiq ifodalay bilishi lozim.

3. Abituriyentning javobi 3 ("qoniqarli")ga baholanishi uchun:

- mavzu mohiyatini chuqurroq ochib berishi, notiqlik qobiliyati sezilib turishi;
- so'z san'ati va natijaviy madaniyati haqidagi tasavvuri qoniqarli darajada bo'lishi;
- so'zni bir qadar nozikroq idrok eta bilishi, fikrni izchil ifodalashga intilishi;
- fikr bayoni va uslubiy ravon, mantiqiy bo'lishi;
- fakt va misollardan to'g'ri foydalanib, to'g'ri xulosalar chiqara olishi;
- fikrini adabiy tilda ifodalashga intilishi kerak.

4. Abituriyentning javobi quyidagi hollarda 2 ("qoniqsiz")ga baholanadi:

- mavzu mohiyati yetarli darajada ochilmasa;
- tilshunoslik bo'limlari va adabiyot haqida muayyan tasavvurga ega bo'lmasa;
- fikrni ifodalashda g'alizlik uchrashi;
- abiturientning mavzu yuzasidan tasavvuri yuzaki bo'lsa;
- fikrlash doirasi tor bo'lsa;
- fikr bayoni izchil bo'lmasa;
- natijaviy ravonlik, mantiqiy muvofiqlik kuzatilmasa.

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi faoliyati 2026-2027 o'quv yili qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

O'zbek tili va adabiyoti fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlar bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihon komissiyasi turkibi odatda uch nafar a'zodan kam bo'lmagan holda tashkil etiladi.

Ijodiy (kasbiy) imtihon natijalari uch kun muddatdan kechiktirilmagan holda e'lon qilinadi.

O'zbek tili va adabiyoti fanidan sinovlar mavjud barcha turdagi ta'lim yo'nalishlari bo'yicha ijodiy (kasbiy) imtihon natijalaridan norozi abituriyentlarning murojaatlarini ko'rib chiqish bo'yicha apellyatsiya komissiyasi tashkil etiladi.

Apellyatsiya komissiyasi tarkibi va uning faoliyatini tashkil etish

Apellyatsiya komissiyasi kasbiy (ijodiy) imtihonni o'tkazgan oliy ta'lim muassasasi qabul komissiyasi tomonidan tashkil etiladi.

Abituriyent kasbiy (ijodiy) imtihon natijalari e'lon qilingan vaqtdan boshlab, 24 soat ichida apellyatsiya komissiyasiga og'zaki yoki yozma shaklda murojaat etishi shart. Belgilangan muddatdan keyin murojaatlar qabul qilinmaydi.

Apellyatsiya komissiyasi abituriyentning faqat o'zining ishi bo'yicha bildirilgan murojaatini yuzma-yuz abituriyentning ishtirokida ko'rib chiqadi va yakuniy qarorni beradi.